

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

M.V. LOMONOSOV NOMIDAGI MOSKVA DAVLAT UNIVERSITETINING TOSHKENT SHAHRIDAGI FILIALI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH TO'G'RSIDA

Oliy ma'lumotli yuqori malakali kadrlar tayyorlashni yanada rivojlantirish va takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda iqtidorli yoshlarning salohiyatini ro'yobga chiqarish va ulardan samarali foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratish, oliy ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi va M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Toshkent shahridagi filialini (keyingi o'rinlardagi matnda "Filial" deb yuritiladi) ta'sis etish to'g'risidagi taklifi qabul qilinsin.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetida qabul qilingan normalarga va oliy ta'lim sifatiga qo'yiladigan umumiy e'tirof etilgan xalqaro talablarga, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi [Qonunining](#) maqsad va vazifalariga muvofiq yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash Filialning asosiy vazifasi etib belgilansin.

(1-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-noyabrdagi PF-3-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.11.2021-y., 06/21/3/1037-son)

2. Filialni tashkil etish bo'yicha tashkiliy komissiya tarkibi [ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

3. Belgilansinki:

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Filial Moskva davlat universitetining alohida tarkibiy bo'linmasi, barcha darajalarda mutaxassislar tayyorlaydigan, shu jumladan ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim tashkiloti hisoblanadi;

(3-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-noyabrdagi PF-3-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.11.2021-y., 06/21/3/1037-son)

Filialning faoliyati O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi;

abituriyentlar qabul qilish va Filial bitiruvchilarini attestatsiyadan o'tkazish M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti tomonidan belgilanadigan talablarga, tartib va muddatlarga muvofiq amalga oshiriladi;

Filialda o'qitish M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti tomonidan tasdiqlangan o'quv rejalari va dasturlar bo'yicha amalga oshiriladi;

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Filialning qabul parametrlari M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishgan holda Filial Vasiylik kengashi qarori bilan tasdiqlanadi;

(3-bandning oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi PF-107-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.07.2023-y., 06/23/107/0441-son)

Filial bitiruvchilariga M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetini tamomlaganligi to'g'risida belgilangan namunada beriladigan diplom O'zbekiston Respublikasida oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjat sifatida e'tirof etiladi.

4. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi va M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti bilan birgalikda bir oy muddatda Toshkent shahrida M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining filialini tashkil etish bo'yicha ta'sis

hujjatlarini ishlab chiqish va tasdiqlash, shuningdek, Filialni belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazish yuzasidan zarur chora-tadbirlarni ko'rsin.

5. Belgilansinki, M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetidan jalb etiladigan professor-o'qituvchi xodimlarning xizmat safarlariga haq to'lash Rossiya Federatsiyasida oliy o'quv yurtlari xodimlari uchun belgilangan normalar bo'yicha amalga oshiriladi.

6. M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti:

o'quv jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari, fan va oliy ta'limning eng yangi yutuqlari joriy etilishiga;

Filial professor-o'qituvchilari tarkibi M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetida malaka oshirishi va qayta tayyorlanishiga;

Filialning kutubxona fondi shakllantirilishi va uning zamonaviy o'quv, o'quv-metodik va ilmiy-ommabop hamda badiiy adabiyotlar bilan to'ldirilib borishiga ko'maklashishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

7. Belgilansinki, Filial faoliyatini moliyalashtirish:

Oldingi tahrirga qarang.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga davlat grantlari shaklida ajratiladigan davlat budjeti mablag'lari;

(7-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi PF-107-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.07.2023-y., 06/23/107/0441-son)

to'lov-kontrakt asosida talabalarni (tinglovchilarni) o'qitganlik uchun tushadigan mablag'lar;

homiylarning mablag'lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

8. Belgilansinki, M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti Toshkent filialining davlat grantlari asosida o'qigan bitiruvchilari kamida uch yil respublikaning ta'lim muassasalari, korxonalari va tashkilotlarida ishlab berish sharti bilan ishga taqsimlanadilar.

9. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi:

2006/2007 o'quv yilidan boshlab, har yili, talabalar (tinglovchilar)ni davlat grantlari bo'yicha o'qitish uchun, biroq Filialda o'qishga qabul qilinadigan talabalar (tinglovchilar) umumiy sonining 40 foizidan ortiq bo'lmagan qismiga davlat budjetidan mablag' ajratsin;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg'armasidan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining asoslangan hisob-kitoblari bo'yicha Filialni zarur o'quv-laboratoriya jihozlari, kompyuter texnikasi va kutubxona fondi bilan jihozlash uchun mablag' ajratsin.

10. Filialni jihozlash va uning faoliyati uchun olib kelinadigan uskunalar, adabiyotlar, multimediya mahsulotlari, inventarlar, moddiy-texnika resurslari, istisno tariqasida, 5 yil muddatga bojxona to'lovlari to'lashdan ozod qilinsin (bojxona rasmiylashtiruvi yig'implari bundan mustasno).

Oldingi tahrirga qarang.

11. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Filialning buyurtmanomalari bo'yicha Filial tomonidan taklif etiladigan chet ellik o'qituvchilar va mutaxassislar davlat boji to'lamasdan turgan joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilishini va uning muddati uzaytirilishini ta'minlasin.

(11-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 9-iyundagi PF-109-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.06.2026-y., 06/26/109/0580-son)

12. Filialga o'qituvchilik va ilmiy ish uchun taklif etiladigan chet ellik professorlar va o'qituvchilarning yashashi va transport xarajatlari uchun to'lovni O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun belgilangan tariflar bo'yicha milliy valyutada to'lashga ruxsat berilsin.

13. Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 27-dekabrdagi 575-f-son farmoyishi bilan tashkil etilgan komissiyaning M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti filialini Toshkent shahar, Movarounnahr ko'chasida qurilayotgan 22-uyda joylashtirish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

binolar kompleksi qurilishini tugallash va 2006/2007 o'quv yili boshlangunga qadar foydalanishiga topshirishni;

mazkur binolar kompleksida M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Toshkent shahridagi filiali joylashtirilishini ta'minlash yuzasidan kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar ko'rsin.

15. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Sh.M. Mirziyoyev zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. KARIMOV

Toshkent sh.,
2006-yil 24-fevral,
PQ-290-son

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2006-yil 24-fevraldagi
PQ-290-son qaroriga
ILOVA

Toshkent shahrida M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti filialini tashkil etish bo‘yicha
Tashkiliy komissiya

TARKIBI

1. Sh.M. Mirziyoyev — O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, Komissiya raisi
2. R.S. Qosimov — O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazir o‘rinbosari, O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri, Komissiya raisi o‘rinbosari
3. A.K. Vorisov — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat maslahatchisi o‘rinbosari
4. E.M. G‘aniyev — O‘zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri
5. R.S. Azimov — O‘zbekiston Respublikasi moliya vaziri
6. A.X. To‘xtayev — Toshkent shahar hokimi
7. L.I. Karimova — Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi direktori
8. V.A. Sadovnichiy — M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti rektori (kelishuv bo‘yicha)
9. Sh.E. Qurbonov — O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha ATD mudiri, Komissiya kotibi

(O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2006-y., 9-son, 63-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.01.2021-y., 06/21/6146/0065-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.11.2021-y., 06/21/3/1037-son; 16.06.2022-y., 07/22/279/0530-son; 04.07.2023-y., 06/23/107/0441-son; 10.06.2026-y., 06/26/109/0580-son)